

## **ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KELISHIK QO'SHIMCHALARINING QO'LLANISHI**

**G'ofurova Sevara Nodirbek**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Muratova Nafisa Baxtiyorovna**

Ilmiy rahbar: O'zbek tilshunosligi kafedrasи o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining til nuqtai nazaridan tahlil jarayoni amalga oshirilgan. Bu jarayonda Navoiy asarlaridagi kelishik qo'shimchalar davrlar o'tib qanday o'zgarishlarga uchraganligi va vaqtlar o'tgani sari tilshunoslikda adabiy tilning o'z me'yoriga tushish holatlarini kuzatish mumkin. Navoiyning bir nechta asarlaridan olingan misollar asosida kelishik kategoriyalari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** Navoiy, kelishik kategoriyalari, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, chiqish kelishigi, til.

### **KIRISH**

Avvalo Navoiy tiliga biroz to'xtalib o'tsak, bilamizki, umumo'zbek xalq tili XV asrda Alisher Navoiy tomonidan mukammal adabiy til darajasiga ko'tarildi. Navoiy o'z tilini turkiy til deb atagan bir vaqtida, Bobur: "Bu til Andijon shevasiga yaqin til ", - deb izohlaydi. Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan adabiy tilning uslubi juda ko'p turkiy shoirlar hamda yozuvchilar uchun andoza bo'ldi, hatto nasriy asarlar uchun xos bo'lgan uslubi XIX asrgacha saqlanib qolgan. Alisher Navoiy asarlarining tili badiiy adabiyot tilining eng yaxshi namunalaridan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR VA METADOLOGIYA

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ot so'z turkumi avvaldan shakllangan va shu bugungacha yetib kelish davrida turli ko'rinishlarga ega bo'lgan. Ular tilning ichki imkoniyatlari, tashqi ta'sirlar va yana ko'pgina taraqqiyotlar natijasida rivojlangan. Bu kabi o'zgarishlarga qadimgi turkiy tilda yozilgan asarlar va obidalardagi manbalarning til xususiyatlarini o'rganish orqali duch kelamiz. Turkiy tilni davrlashtirishda barcha davrlarning o'ziga xos grammatik shakllariga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qadimgi turkiy tilda ot so'z turkumiga taaluqli kelishik qo'shimchalarining ifodalanishi keying davrlarda bir muncha o'zgargan. Kuzatishlar natijasida Alisher Navoiy asarlarida kelishik qo'shimchalar ko'makchilar bilan sinonimlik ( ma'nodoshlik ) hosil qilganiga ham guvohi bo'ldim. Gapda otning yoki otlashgan so'zlarning fe'lga, ba'zi holatlarda esa qolgan boshqa so'z turkumlariga munosabatini ifodalaydigan kategoriylar bu kelishiklardir. Hozirgi o'zbek tilidagidek eski o'zbek tilida ham 6 ta kelishik shakli bo'lgan. Qadimgi turkiy tillarga oid vosita kelishigi esa XIII – XIV asrlarga mansub yozma yodgorliklarning tilida qo'llangan. XV asrdan boshlab esa bu kelishigining qo'llanishi biroz kamaygan va bora-bora grammatik xususiyatini yo'qotib, keyinchalik kelishik kategoriysi sifatida iste'moldan ham chiqib ketgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

**Bosh kelishigi** maxsus qo'shimchaga ega emas va u otning bosh ko'rinishini ifodalaydi. Shuning uchun ham davrlar mobaynida o'zgarishsiz qolgan. Bosh kelishikning asosiy vazifasi gapda ega vazifasida kelishdir. Alisher Navoiyning “ Majolisun nafois “ asarida bunga quyidagicha parcha orqali misol keltirishimiz mumkin:

*Quyash har kun yuz urur ul qapuqqa.*

Alisher Navoiy o'zining "Munshaot" asarida **qaratqich kelishigini** ko'p holatlarda belgili qo'llagan. Hatto qator kelgan qaratqichlarning ikkalasi ham belgisiz kelmagan. Masalan:

*Qullarning vahmining bir uluq natijasi.*

Asarda aniqlovchi vazifasida kelgan qaratqich kelishigidagi so'z butunning bo'lagi, qismni ifodalagan:

*Qara yig'achning sarig' barglaring yel uchurg'ani.*

**Tushum kelishigining** -n affiksli ko'rinishi ham eski o'zbek tilida ancha keng qo'llangan. Lekin bu affiks faqat III shaxs shaklidagi so'zlarga qo'shilgan: *yolin* ( yo'lini ), *qashin* ( qoshini ), *hammasin* ( hammasini ), *lahjasin* ( lahjasini ), *gapin* ( gapini ) kabi.

XV asr va undan keyingi vaqtarda bu shakl asosan nazmiy asarlarda qo'llangan bo'lib, ba'zan nasriy asarlarda ham uchraydi. Xususan, Navoiyning "Majolisun nafois" asaridagi quyidagi gapda bunga amin bo'lamiz:

*Anjumanda bir qasidasin oquydur erdi.*

Tushum kelishigining -i affiksli ko'rinishi ayrim manbalarda qo'llangan bo'lib, asosan egalik shaklining I shaxs birligidagi so'zlarga qo'shilgan. XV asr va undan keying davrlarda bu shaklda qo'llanish faqatgina nazmiy asarlarda uchraydi. "Majolisun nafois" dan keltirilgan misralarga diqqat qaratamiz:

*Salayin ozumi ozga adyara // kongulni bag'lag'ayin ozga yara.*

*Tolun ayg'a nisbat ettim yarimi // ul xijalatdin kam oldi yarimi.*

Tushum kelishigining belgisiz qo'llanishi ot turkumidagi so'zlarga, ya'ni turdosh otlarga xos xos. Nimani ? ( nimalarni ? ) so'rog'iga javob bo'luvchi otlar boshqaruvchi fe'l bilan yondosh kelganda belgisiz qo'llanadi. Navoiyda quyidagicha misol keltirilgan:

*Manga xil'at kiyurib, qosh tutti.*

Navoiy asarlarida tushum kelishigi qaratqich kelishigi o'rnida qo'llanib kelgan holatlari ham mavjud:

*Ikki zulfung kongullarni panahi.*

Majhul darajadagi fe'llar Navoiyning nasriy asarlarida tushum kelishigidagi so‘zni boshqargan:

*Buyurg'an g'azallardin tayyar bo'lg'anlarni yibarildi.* ( “ Munshaot “ )

*Ani uch qism qilindi.* ( “ Mahbub – ul qulub “ )

Navoiy o‘zining “ Lisonut tayr “ asarida de- ( te-) fe’li bilan boshqarilgan so‘zni tushum kelishigida qo‘llagan:

*Orazing gul der edi, qaddini sarv.*

Navoiy asarlarida **jo‘nalish kelishigining** -g‘a/-ga // -qa/-ka affiksi III shaxs egalik shaklidagi so‘zlarga qo‘shilganda egalik affiksi bilan kelishik affiksi o‘rtasida (n) undoshi orttirilgan:

*Meni xayrat maqaming'a yeturgil.* ( “ Majolisun nafois “ )

“ Majolisun nafois “ asarida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi III shaxs egalik shaklidagi qattiq o‘zakli so‘zlarga -na shaklida qo‘shilgan:

*Kular ay husnunga gul-tek engingiz.*

Huddi shu asarda jo‘nalish kelishigining -a affiksli shakli so‘z asosiga bevosita qo‘shilish holatiga ham guvoh bo‘lamiz:

*Salayin ozumi ozga adyara // kongulni bag'lag'ayin ozga yara.*

Navoiy davrida jo‘nalish kelishigidagi so‘z vositali to‘ldiruvchi yoki hol, ba’zan kesim vazifasida qo‘llanilib, “ Mahbub-ul qulub “ asarida biror holatga o‘tish, yetishish, biror narsaga erishsiz kabi ma’nolarni ifodalaydi:

*Va hayalig'a kechmas davlatg'a sazavar boldi.*

“ Favoidul kibar “ asarida esa jo‘nalish kelishigi o‘rin-payt kelishigi o‘rnida qo‘llangan:

*Adam diyarig'a ham tapmag'un xabar mendin.*

**O‘rin-payt kelishigi** Navoiy asarlarida ham deyarli hech qanday o‘zgarishsiz bo‘lgan. “ Sab’ayi sayyor “ asarida bu kelishik jo‘nalish kelishigi o‘rnida qo‘llangan:

*Qayda kim konglunguz tilar, yetingiz.*

“ Majolisun nafois “ asarida esa chiqish kelishigi o‘rnida ham qo‘llangan:

*Atasining yaxshi-yamaninda soz desa bolmas kim, bag'ayat mashhurdur.*

**Chiqish kelishigidagi** so'z o'rin holi, payt holi, vositali to'ldiruvchi yoki kesim holida kelib, Navoiyning "G'aroyibus-sig'ar" asarida ikki narsa yoki shaxsning biror belgisi, xususiyati, holatiga ko'ra bir-biri bilan qiyoslash, chog'ishtirish, ortiq yoki kamligini ko'rsatish ma'nosida qo'llangan:

*Gar tilar-sen, tapmag'un men natavandin yaxshiroq.*

-n ( -in / -un ) affiksi bilan hosil bo'lgan **vosita kelishigi** Navoiyning "Munshaot" asarida ham uchraydi:

*Gar may otidin qalmadi bazm ichra savug'lug' / kelsang ketadur tiralikin dag'I yarug'luq.*

### XULOSA

Kelishiklar bizgacha bunday yetib kelgunga qadar davrlar mobaynida o'zgarib borgan. Biz esa birligina Navoiy asarlari misolida ko'pgina o'zgarishlarini guvohi bo'ldik.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy "Munshaot" [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz) kutubxonasi.
2. Alisher Navoiy "Majolisun nafois" [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz) kutubxonasi.
3. Alisher Navoiy "Mahbub-ul qulub" [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz) kutubxonasi.
4. O'zbek adabiy tili tarixi. O'quv qo'llanma. A. Muxtorov, U. Sanaqulov. T. O'qituvchi 1995
5. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Darslik. T. 2008